



AIRITOM ERKIN SAVDO ZO'NASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Usmonov Husan Murodullayevich

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik
Va Boshqaruv fakulteti 3-BB-22 guruh talabasi

Usmonov Husan

husanu477@gmail.com

Tel:+998948864204

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19510099>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 09- aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 11- aprel 2026 yil

KEY WORDS

“Termiz” EIZ , “AIRITOM Free
Zone”, “Surkhan Global Trade”
integratsiya, Vazirlar Mahkamasi,
soddalashtirish, delegatsiyasi.

ABSTRACT

AIRITOM Barcha to'siqlardan holi bo'lgan hudud, "Termiz" erkin iqtisodiy zonasi, 29 avgust kuni Termiz shahrida «Termiz xalqaro savdo markazi» ning rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tgan, Afg'oniston bilan atigi 500 metr masofada joylashgan. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish, xorijiy sarmoyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish har qanday mamlakat uchun eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masaladir. Bunday vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy zonalar muhim o'rin tutadi. Palata raisi A.Shayxov va boshqalar mustaqillik yillarida amalga oshirilgan bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan dasturlar mamlakatimizda qulay investitsiya muhiti shakllanishi hamda xorijiy investitsiyalar ko'lami oshishida muhim omil bo'layotganini qayd etdi. Bu yerda faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlik sub'yektlariga turli imtiyozlar, qulayliklar yaratiladi. Xususan, EIZ hududlarida alohida soliq, bojxona va valyuta rejimi amal qiladi. Tadbirkorlik sub'yektlarining muhandislik-telekommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlariga ulanishida qulayliklar yaratish maqsadida «yagona darcha» tamoyili bo'yicha ruxsatnomalar berilishi yo'lga qo'yiladi.

“Termiz” erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, “Termiz” EIZ ning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi: “Termiz” EIZ ni rivojlantirish davlat

dasturlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash; "Termiz" EIZ hududida alohida huquqiy rejimga rioya etilishini ta'minlash; Surxondaryo viloyati erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining ma'muriy kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarga asosan "Termiz" EIZ qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish va ularning reyestrini yuritish, ularga tegishli guvohnomalar berish; investorlar bilan investitsiyalar kiritish to'grisida bitimlar tuzish; "Termiz" EIZ hududida investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun xorijiy va mahalliy investorlarni qidirish va ular bilan ishlash; vakillari qatnashgan. 29 avgust kuni Termiz shahrida «Termiz xalqaro savdo markazi»ning rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

1996 yilda O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'grisida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun investitsiyalar jalb qilish va jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan o'tgan yillarda Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona hamda "Angren" va "Jizzax" maxsus industrial zonalarini tashkil etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 12 yanvardagi «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'grisida»gi farmoniga muvofiq, O'zbekistonda yana to'rtta erkin iqtisodiy zona faoliyatini yo'lga qo'yish belgilandi. Mazkur EIZlar faoliyati meva-sabzavot va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to'qimachilik, gilam to'qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa yo'nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

AirTom kabi platformalar mintaqaviy iqtisodiyotga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ular yangi daromad manbalari va xizmat ko'rsatish sektorini rivojlantiradi. **Richard Florida**, shaharlar iqtisodiyoti va kreativ iqtisodiyot bo'yicha taniqli olim, bunday xizmatlarning turizm va xizmat ko'rsatish sektoriga ijobiy ta'sirini ta'kidlaydi.

AirTom yoki unga o'xshash platformalar haqidagi iqtisodchilarning fikrlari, odatda, uning innovatsion qobiliyati va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirishga qaratilganligi haqida ijobiydir. Ammo bu kabi platformalarning xavf-xatarlari va salbiy tomonlari, masalan, notenglik, monopoliya xavfi va ekologik muammolar ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Ushbu manba va adabiyotlar ijodiy sinfning zamonaviy jamiyatdagi rolini keng yoritadi. Richard Florida asarlarida ijodiy sinf – bu iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va urbanizatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida taqdim etiladi. Uning nazariyasiga ko'ra, shaharlardagi ochiq, bardoshli va madaniy jihatdan boy muhitlar ijodiy kadrlar uchun eng jozibador makonlardir.

Yangi erkin iqtisodiy zonalarining asosiy maqsadi va faoliyati tashqi bozorda

talab qilinadigan tovarlar hamda import o'rnini bosuvchi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yar - atish uchun ham xorijiy, ham mahalliy investorlarning to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb etishdan iborat.

Bunga qo'shimcha ravishda, O'zbekistonning rasmiy veb-saytlaridagi ma'lumotlar (mineconomy.gov.uz, surxondaryo.uz) ijodiy sinfni shakllantirishga qaratilgan hududiy siyosatlar va tashabbuslarni yoritadi. Bu orqali mamlakatda ham ijodiy iqtisodiyot

tamoyillarini joriy etish, hududiy innovatsiyalarni rivojlantirish va madaniyatni iqtisodiy omil sifatida ko'rish tendensiyasi kuchaymoqda.

Internetdagi boshqa resurslar (airtom.com kabi) esa texnologik yechimlar va innovatsion platformalarning ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi. Ya'ni, ijodkorlik bugungi kunda faqat san'at yoki madaniyat emas, balki IT, dizayn, muhandislik, xizmat ko'rsatish sohalarida ham iqtisodiy kuchga aylangan.

Ijodiy sinfni rivojlantirish – bu faqat ta'lim yoki madaniyatga investitsiya emas, balki shaharlarni va hududlarni iqtisodiy jihatdan raqobatbardosh qilish strategiyasidir. Bu sinf vakillari – g'oya yaratuvchilari, innovatorlar, madaniy liderlar – kelajak iqtisodiyotining tayanchidir. Davlat siyosati, texnologik infratuzilma, ochiq madaniy muhit va zamonaviy shaharlik hayot – bular ijodiy sinfni jalb qilish va ushlab qolishning asosiy omillaridir.

Muhokama:

1. Logistika va transport muammolari

Geografik joylashuvi: Termizning geografik joylashuvi strategik ahamiyatga ega bo'lsa-da, u respublikaning boshqa hududlariga nisbatan chekka hisoblanadi. Bu esa mahsulotlarni tashish xarajatlarini oshirishi mumkin.

Afg'oniston bilan chegaradosh hudud: Mintaqa yaqinidagi siyosiy va xavfsizlik muammolari logistika va savdoni murakkablashtirishi mumkin.

2. Investitsiya muammolari

Chet el investorlarini jalb qilish qiyinligi: Xavfsizlik, infratuzilma va qonunchilikning barqaror emasligi kabi omillar xorijiy investorlarni cho'chitishi mumkin.

Byurokratiya va ruxsatnoma olish jarayonlari: Investitsiyalarni jalb qilishda ortiqcha hujjatbozlik va sekin qaror qabul qilish jarayonlari to'siq bo'lishi mumkin.

3. Infratuzilma kamchiliklari

Energetika va kommunikatsiya masalalari: Zavod va fabrikalarning samarali ishlashi uchun yetarli elektr ta'minoti, suv va boshqa resurslar talab etiladi. Ushbu hududda bu infratuzilma to'liq shakllanmagan.

Yo'l va transport infratuzilmasi: Zamonaviy yo'llar va transport tizimi yetarli darajada rivojlanmaganligi.

4. Mehnat bozoridagi muammolar

Malakali ishchi kuchi yetishmasligi: Termiz mintaqasida sanoatga mos keluvchi yuqori malakali ishchilar kamligi.

Ijtimoiy sharoitlar: Ishchi kuchi uchun zarur bo'lgan turar joy, sog'liqni saqlash va ta'lim infratuzilmasining yetarli emasligi.

Natijalar:

Termiz EIZ faoliyatini yanada samarali qilish uchun:

1. Logistika va infratuzilma rivojiga e'tibor qaratish,
2. Mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish,
3. Malakali ishchi kuchini tayyorlash dasturlarini yo'lga qo'yish,
4. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha choralarni ko'rish lozim.

O'zbekiston hukumati matbuot xizmatining xabar berishicha tadbirda O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov, Afg'oniston bosh vaziri vazifasini bajaruvchi Abdul G'ani Barodar, Ozarbayjon bosh vazirining o'rinbosari Shaxin Mustafayev, Qirg'iziston iqtisodiyot va savdo vazirining o'rinbosari Nazarbek Malayev, Qozog'iston Respublikasi savdo va integratsiya

vazirining o'rinbosari Qayrat Torebayev va boshqalar ishtirok etdi. Qayd etilishicha, qulay ishbilarmonlik muhiti va logistikani yaratish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va tadbirkorlar uchun zarur sharoit yaratish maqsadida «Termiz xalqaro savdo markazi» barpo etilgan. *Mazkur Markaz mintaqamizda savdo aloqalarini kengaytirish va qo'shma loyihalarni amalga oshirishda muhim platformaga aylanishiga ishonch bildirildi. Markazda Afg'oniston fuqarolariga savdo-sotiq qilishlari, ta'lim, tibbiyot hamda boshqa ijtimoiy xizmatlardan foydalanishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida so'z yuritildi.* Belgilangan tartibda tanlab olingan investorlar tomonidan o'z zimmalariga qabul qilingan majburiyatlarning zarur tarzda bajarilishini tizimli nazorat qilish, keyinchalik natijalarni ma'muriy kengashga takdim etish; Termiz EIZ qatnashchilariga, shu jumladan davlat organlarida ularning manfaatlarini ifodalash yo'li bilan xizmatlar ko'rsatish; Termiz EIZ hududida infratuzilma obektlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish jarayonlarini muvofiqlashtirish; Termiz EIZ hududidagi yer maydonlarini va ko'chmas mulk obektlarini boshqarish. Hujjat bilan "Surkhan Global Trade" MChJ Direksiyaning yagona ta'sischisi hisoblanishi hamda "Termiz" EIZ hududida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi faol investitsiya siyosatini amalga oshirishi va muvofiqlashtirishi belgilab qo'yildi. Ochilish marosimida O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov, Afg'oniston bosh vaziri vazifasini bajaruvchi Abdul G'ani Barodar, shuningdek, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Qozog'iston hukumati. Ramziy tasma kesilib, Markaz rasman ochilganidan so'ng diplomatik korpus vakillari «Termiz xalqaro savdo markazi» faoliyati bilan tanishdi. Shuningdek, O'zbekiston bosh vaziri Abdulla Aripov Termiz shahrida Afg'oniston Bosh vaziri vazifasini bajaruvchi Abdul G'ani Barodar hamda Ozarbayjon Respublikasi bosh vazirining o'rinbosari Shaxin Mustafayev bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazgan. Eslatib o'tamiz, joriy yil 17 avgust kuni bosh vaziri Abdulla Aripov boshchiligidagi O'zbekiston hukumat delegatsiyasi Kobulda Tolibon rasmiylari bilan uchrashuv o'tkazgan edi. Muzokaralar davomida O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi o'zaro savdo aylanmasini joriy yilda 1 milliard dollarga, yaqin istiqbolda esa 3 milliard dollarga yetkazish bo'yicha barcha imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi prezident farmoni imzoladi. Bu haqda Adliya vazirligining telegramdagi «Huquqiy axborot» kanali orqali xabar berildi. Farmon bilan erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihalarini joylashtirishning sharti sifatida faoliyat boshlaganidan keyin ikkinchi moliyaviy yili yakunlariga ko'ra ikki yil davomida yillik ishlab chiqarilgan mahsulotning 25 foizidan kam bo'lmagan, keyingi yillarda 50 foizdan kam bo'lmagan miqdorda eksport qilish belgilandi.

O'zbekiston hukumati mamlakatda to'rtta yangi erkin iqtisodiy zona tashkil etishni rejalashtirmoqda. "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarori loyihasida mazkur zonalarini O'zbekistonning alohida hududlarida tashkil etish belgilangan. O'zbekiston Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi Iqtisodiyot vazirligi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda mazkur yangi zonalarining aniq chegaralarini belgilaydi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda bilamizki hozirgi kunda aholi turmish tarzini yaxshilash va ishsizlik sonini kamaytirishga etibor qaratilmoqda va shu bilan bir qatorda xalqaro aloqalarni yaxshilashga va

eksportni ko'paytirishga katta etibor qaratilmoqda. Biz bilamizki O'zbekistonda ishsizlik darajasi yuqori bu bizga katta noqulayliklarni tug'durmoqda. Ya'ni O'zbekiston endigina qishloq xo'jaligidan sanoatga utmoqda bu esa ish o'rinlarini kamligini ko'rsatadi. Bunday loyihalarni joriy qilishdan maqsad esa aholi bandligini ta'minlash ishsizlikni yo'qotishni ko'zda tutadi. Bunga misol qilib Surxondaryo viloyati Termiz shaxridagi AIRITOM erkin iqtisodiy zo'nasini olsak bo'ladi. Yani bu ishlar orqali ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash tavar va xizmatlar almashunuvini yaxshilash ko'zda tutilgan bilamizki O'zbekiston markaziy osiyoda joylashgani sababli dengiz orqali savdo ishlarini amalga oshirolmaydi va o'z tavar va xizmatlarini dengiz orti mamlakatlariga taqdim qila olmayabdi shuning uchun dengiz bo'yi davlatlari bilan aloqalarni yaxshilash ular orqali dengiz orti mamlakatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yish ko'zda tutulmoqda. Biz bilamizki hozirgi kunda rivojlangan davlatlarning ko'pi dengiz orqali savdo ishlarini amalga oshiradi chunki bu arzon va qulay hisoblanadi. AIRITOM haqida gapirsak bu erkin savdo markazi hisoblanadi va u davlatlar o'rtasidagi do'stlikni anglatadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. mineconomy.gov.uz/uz/info/2456
2. airitom.com/uz
3. surxondaryo.uz/uz/blog/okimlik-yangiliklari/2201
4. "Ijodkor sinfning yuksalishi"
5. "Ijodkor sinfning parvozi"
6. "G'alati shahar"
7. <https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/download/376/171/1012>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/12/21/eiz-takomillashuv/>
9. <https://kun.uz/66237397>